



THE RESTORATION OF CULTURAL HERITAGE AND ITS PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS DURING THE ERA OF NATIONAL REVIVAL

Gulzoda Uzoqova

PhD Candidate

Karshi State University, Department of Social Sciences

gulzodauzakova@gmail.com

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national uplift, cultural heritage, national identity, historical memory, values, state policy, philosophy, globalization, public action, education of the younger generation.

Received: 19.11.25

Accepted: 20.11.25

Published: 21.11.25

Abstract: This article analyzes the philosophical foundations of the restoration and preservation of cultural heritage in the Republic of Uzbekistan during the period of national uplift. Cultural heritage, as the main foundation of the historical memory, identity and pride of the nation, occupies an incomparable place in the development of society. The article discusses the coherence of the process of restoring national cultural heritage with state policy and public action, its role in reviving historical memory, and its place in the education of the younger generation from a scientific point of view.

MILLIY YUKSALISH DAVRIDA MADANIY MEROSNING TIKLANISHI VA UNING FALSAFIY ASOSLARI

Gulzoda Uzoqova

Tayanch doktorant

Qarshi davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası

gulzodauzakova@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy yuksalish, madaniy meros, milliy o'zlik, tarixiy xotira, qadriyatlar, davlat siyosati, falsafa, globallashuv, jamoatchilik harakati, yosh avlod tarbiyasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy yuksalish davrida O'zbekiston Respublikasida madaniy merosni tiklash va asrab-avaylashning falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Madaniy meros millatning tarixiy xotirasi, o'zligi va g'ururining asosiy poydevori sifatida jamiyat taraqqiyotida beqiyos o'rin tutadi.

Maqolada milliy madaniy merosni tiklash jarayonining davlat siyosati va jamoatchilik harakati bilan uyg'unligi, tarixiy xotirani jonlantirishdagi roli, yosh avlod tarbiyasidagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

ВОЗРОЖДЕНИЕ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ И ЕГО ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ В ЭПОХУ НАЦИОНАЛЬНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ

Гульзода Узокова

Аспирант

Карчийский государственный университет, кафедра социальных наук

gulzodauzakova@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальный подъём, культурное наследие, национальная идентичность, историческая память, ценности, государственная политика, философия, глобализация, общественное действие, воспитание подрастающего поколения.	Аннотация: В статье анализируются философские основы реставрации и сохранения культурного наследия в Республике Узбекистан в период национального подъёма. Культурное наследие, как основа исторической памяти, идентичности и гордости нации, занимает несравненное место в развитии общества. В статье с научной точки зрения рассматривается взаимосвязь процесса реставрации национального культурного наследия с государственной политикой и общественными действиями, его роль в возрождении исторической памяти и место в воспитании подрастающего поколения.
--	---

Kirish. Milliy yuksalish davri har bir xalq hayotida tub burilish yasaydigan davr bo'lib, unda nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarida, balki madaniy-ma'naviy hayotda ham muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ayniqsa, bugungi globallashuv davri har bir millat uchun o'z milliy o'zligini saqlash, tarixiy xotirasini tiklash va boy madaniy merosini asrab-avaylash zaruratini yanada keskinlashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning milliy yuksalish davri o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan keng ko'lamli ishlari bilan ajralib turadi.

Madaniy meros bu — xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy boyligi, uning urf-odatlar, san'ati, tili, dini, me'morchilik yodgorliklari, qadimiy qo'lyozmalari va boshqa ko'plab nodir boyliklaridir. Madaniy meros millatning kimligini belgilovchi, uning tarixiy taraqqiyot yo'lini ifodalovchi asosiy mezonlardan biridir. Shu bois bugungi milliy yuksalish davrida madaniy

merosni saqlash, uni tiklash va kelgusi avlodlarga yetkazish davlat siyosatining, jamoatchilik faoliyatining, madaniyat va ta'lim sohasining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutq va asarlarida milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni asrash va boyitish, madaniy merosni tiklash va uni yangi avlod ongiga singdirish masalalarini ustuvor vazifa sifatida ta'kidlab kelmoqda.

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi tezkor o'zgarishlar davrida milliy qadriyatlar, madaniy meros va tarixiy xotira bilan bog'liq masalalar nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab boshqa davlatlar uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Shu sababli milliy yuksalish jarayonida bu yo'nalishlarni ilmiy asoslash va tizimli tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy madaniyat va ma'naviyatning tiklanishi masalasida I.A. Karimovning asarlari, xususan, "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" kitobi ham muhim nazariy manba sifatida e'tirof etiladi. Unda mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash va ularni yosh avlod ongiga singdirish, madaniy merosni asrab-avaylash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari bayon etilgan.

Madaniy meros tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishda Beruniyning madaniyat va ilm-fan taraqqiyoti haqidagi qarashlari, Ibn Sinoning axloq va ma'naviyatga oid risolalari milliy merosning ilmiy-falsafiy poydevorini tashkil etadi. Shuningdek, Fitratning milliy ruh va milliy ong haqidagi qarashlari esa milliy madaniy merosning zamonaviy talqinini yoritishda alohida o'rin tutadi.

Shuningdek, Abdulla Avloniy ning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ham milliy yuksalish va madaniy meros masalalarini yoritishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Avloniy o'z asarida millatning taraqqiyoti uning madaniy-ma'naviy qadriyatlariga tayanishini uqtiradi va milliy madaniyatni asrashni millatning or-nomusi deb biladi.

Davlat siyosati va madaniyat sohasidagi rasmiy hujjatlar, xususan, "Madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, "Milliy madaniy merosni asrab-avaylash davlat dasturi", Prezident farmon va qarorlari ushbu mavzuda amaliy chora-tadbirlarning huquqiy asoslarini belgilovchi manbalar sifatida e'tirof etiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar milliy yuksalish davrida madaniy merosning tiklanishi masalasini nazariy va amaliy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ularning tahlili madaniy merosning milliy o'zlik, tarixiy xotira va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uni asrash bo'yicha ilmiy yondashuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Madaniy meros tushunchasining rivojlanishi, uning milliy yuksalishdagi oʻrni tarixiy davrlar kesimida oʻrganildi. Oʻzbekiston tarixidagi turli davrlarda madaniy merosga boʻlgan munosabat, uning tiklanishi va asrab-avaylanish jarayoni tahlil qilindi.

Oʻzbekistonning madaniy merosni tiklash tajribasi boshqa mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslanib oʻrganildi. Bu yondashuv madaniy merosni asrab-avaylash boʻyicha milliy modelning oʻziga xosligi va samaradorligini baholash imkonini berdi.

Davlat hujjatlari, milliy dasturlar, ilmiy maqolalar va ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallar tahlil qilindi. Bu metod madaniy meros boʻyicha olib borilayotgan ishlarning asosiy yoʻnalishlarini va ularning amaliy natijalarini aniqlashga yordam berdi.

Natija va muhokamalar. Madaniy merosni tiklash va uni rivojlantirish jarayoni oʻzaro bogʻliq boʻlgan turli omillar tizimida oʻrganildi. Madaniy meros, milliy oʻzlik, tarixiy xotira, davlat siyosati, taʼlim va tarbiya tizimi, jamoatchilik harakati kabi elementlarning oʻzaro taʼsiri tizimli tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy qismi uchun Toshkent shahrida va ayrim viloyat markazlarida faoliyat yuritayotgan muzeylar, madaniyat markazlari, taʼlim muassasalari faoliyati, ularning madaniy merosni targʻib qilish boʻyicha olib borayotgan ishlari oʻrganildi. Shuningdek, soha mutaxassislari, madaniyatshunoslar, tarixchilar, pedagoglar va yoshlar oʻrtasida madaniy merosga boʻlgan munosabat boʻyicha soʻrovlar oʻtkazildi.

Shu asosda tadqiqot materiallari umumlashtirilib, madaniy merosni tiklash jarayonining nazariy asoslari va amaliy yoʻnalishlari aniqlab chiqildi.

Olib borilgan tahlil va izlanishlar natijasida milliy yuksalish davrida Oʻzbekistonning madaniy merosni tiklash boʻyicha amalga oshirayotgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy harakatlarining mohiyati va ularning falsafiy asoslari chuqurroq ochib berildi. Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Madaniy meros milliy yuksalishning asosiy tarkibiy qismi ekanligi isbotlandi. Oʻzbekiston tajribasi shuni koʻrsatdiki, milliy yuksalish faqat iqtisodiy va siyosiy oʻzgarishlar emas, balki madaniyat va maʼnaviyatning tiklanishi, milliy oʻzlikni anglash, tarixiy xotirani qayta tiklash bilan chambarchas bogʻliq jarayondir. Madaniy meros millatning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va oʻzligining yorqin koʻzgusi sifatida jamiyat taraqqiyoti uchun mustahkam maʼnaviy poydevor boʻlib xizmat qiladi.

Madaniy merosni tiklash va asrab-avaylashning falsafiy asoslari tizimlashtirildi. Madaniy merosning mohiyati faqat tarixiy yodgorliklar yoki moddiy boyliklarda emas, balki xalqning ijtimoiy ongida, urf-odatlar, qadriyatlar tizimi va madaniy xotirasida mujassam ekanligi aniqlanib, bu jarayonning falsafiy ildizlari milliy oʻzlikni anglash, gʻurur va iftixor tuygʻularini shakllantirish bilan bogʻliqligi tasdiqlandi.

Davlat siyosati va jamoatchilik harakatining uyg'unligi madaniy merosni tiklashda muhim omil ekanligi ko'rsatildi. O'zbekiston Respublikasining milliy dasturlari, Prezident farmon va qarorlari, qonun hujjatlari madaniy merosni asrab-avaylash bo'yicha yagona strategiyani shakllantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, tarixiy yodgorliklarni restavratsiya qilish, muzeylar va madaniyat markazlarini rivojlantirish, milliy bayramlar va marosimlarni tiklash bo'yicha olib borilayotgan ishlar madaniy merosning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini oshirmoqda.

Globallashuv davri chaqiriqlari madaniy merosni asrash bo'yicha yangi strategiyalar ishlab chiqishni talab qilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalari rivoji, madaniyatlararo muloqotning kengayishi milliy madaniyatga yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, uning yo'qolib ketish xavfini ham keltirib chiqarmoqda. Shu bois milliy madaniyat va madaniy merosni asrab-avaylash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yosh avlod ongida milliy g'urur va milliy o'zlikni shakllantirishga qaratilgan interaktiv metodlarni kengaytirish lozimligi aniqlandi.

Milliy yuksalish davrida madaniy merosni tiklash va uning falsafiy asoslarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, madaniy meros millatning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviy taraqqiyotining ajralmas qismidir. Madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelgusi avlodlarga yetkazish har bir jamiyatning nafaqat tarixiy burchi, balki barqaror taraqqiyotining kafolati sifatida qaralishi zarur.

Xulosa. Tadqiqot davomida madaniy merosni tiklash jarayonining nafaqat moddiy yodgorliklarni restavratsiya qilish yoki muzeylarni rivojlantirish bilan cheklanmasligi, balki yosh avlod ongida milliy g'urur, vatanparvarlik, tarixiy xotira va o'zlikni anglash tuyg'ularini shakllantirish orqali keng ko'lamli ma'naviy jarayon sifatida qaralishi kerakligi aniqladi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida milliy madaniy merosni asrash uchun zamonaviy texnologiyalar, interaktiv ta'lim metodlari va ommaviy madaniy tadbirlar samarali vosita bo'lib xizmat qilishi zarurligi asoslandi.

Milliy yuksalish davrida madaniy merosni tiklash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar jamiyat hayotining barcha sohalari bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim. Ta'lim, tarbiya, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va madaniyat sohasidagi barcha sub'ektlar birgalikda milliy madaniy merosni targ'ib qilish, uni asrab-avaylash va rivojlantirishga hissa qo'shishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston uchun. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997.

4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. — Toshkent: 1992.
5. Fitrat A. Milliy ruh va uning asoslari. — Toshkent: 1923.
6. Ibn Sino. Axloqiy risolalar. — Toshkent: Fan, 1980.
7. Beruniy A. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Fan, 1975.
8. Kasimova Z.X., Mirqosimova M.M., Rasulova F.F. Umumiy pedagogika va psixologiya. — Toshkent: Ilm, ziyo, zakovat, 2022.
9. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. — Toshkent: Turon-Iqbol, 2006.
10. Jalilova S.X., G‘ayibova N.A. Umumiy psixodiagnostika. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
11. Globalization and National Identity // Philosophical Review. — 2020.
12. Cultural Heritage and Modernization // International Journal of Philosophy and Culture. — 2019.
13. O‘zbekiston Respublikasi qonuni “Madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”. — Toshkent, 2001.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Milliy madaniy merosni asrab-avaylash davlat dasturi (2020–2025).